

O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI SOLIQQA TORTISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20780844>

Alimov Mansurboy Maxmudovich

Sirdaryo tumani Maktab va maktabgacha ta’limi bo’limi mutaxassisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni soliqqa tortish samaradorligiga ta’sir etuvchi amaldagi muammolar va ularning ayrim sabablarini hamda ushbu sohada samaradorlikni oshirishga qaratilgan maqsadli siyosiy vositalarni tahlil etilgan. Tadqiqotda milliy soliq ma’lumotlari, korxonalar so‘rovlari hamda OECD va Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasiga asoslangan taqqoslama tahlillar natijasida soliq ma’urchiligidagi byurokratik to‘siqlar, raqamlashtirish darajasining pastligi va ixtiyoriy rioya etishning zaifligi samaradorlikka asosiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar

Kichik va o‘rta biznes; soliqqa tortish samaradorligi; soliq ma’urchiligi; raqamlashtirish; risklarga asoslangan audit; Tax ID Matching; fiskal siyosat; O‘zbekiston; noformal iqtisodiyot; rioya etish xarajatlari.

Аннотация

В данной статье проанализированы действующие проблемы, влияющие на эффективность налогообложения малого и среднего бизнеса в Узбекистане, отдельные причины их возникновения, а также целевые инструменты государственной политики, направленные на повышение эффективности в данной сфере. В ходе исследования на основе национальных налоговых данных, опросов предприятий, а также сравнительного анализа опыта стран ОЭСР и Центральной Азии установлено, что основными факторами, оказывающими негативное влияние на эффективность, являются бюрократические барьеры в налоговом администрировании, недостаточный уровень цифровизации и слабая добровольная налоговая дисциплина.

Ключевые слова

малый и средний бизнес; эффективность налогообложения; налоговое администрирование; цифровизация; риск-ориентированный аудит; сопоставление налоговых идентификаторов – Tax ID Matching; фискальная политика; Узбекистан; неформальная экономика; издержки соблюдения налогового законодательства.

Abstract

This article analyzes current problems affecting the effectiveness of taxation of small and medium-sized businesses in Uzbekistan and some of their causes, as well as targeted policy instruments aimed at increasing efficiency in this area. As a result of a comparative analysis of national tax data, surveys of enterprises, and the experience of OECD and Central Asian countries, it was revealed that bureaucratic barriers in tax administration, a low level of digitalization, and weak voluntary compliance are the main factors negatively affecting efficiency.

Keywords

Small and medium-sized businesses; tax efficiency; tax administration; digitalization; risk-based audit; Tax ID Matching; fiscal policy.

Kirish.

Kichik va oʻrta bizneslar iqtisodiy oʻsish, bandlik va innovatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida keng tan olingan. Biroq, ularning iqtisodiyotga toʻliq hissasi koʻp jihatdan soliq tizimining samaradorligi va adolatliligiga bogʻliq, ayniqsa, iqtisodiyot bozor tizimiga oʻtish jarayonida boʻlgan davlatlarda, norasmiy faoliyat ulushi katta boʻlgan sharoitlarda. Oʻzbekistonda amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan, iqtisodiy faoliyatning katta qismi hali ham "koʻrinmas" yoki kam hisobot beriladigan holda qolmoqda, bu esa davlat byudjetining soliq tushumlarini va kichik biznesning rasmiylashtirish jarayonini zaiflashtiradi.

Kichik va oʻrta biznesni soliqqa tortishda eng muhim jihatlardan biri – soliq tizimining soddaligi hisoblanadi. Tadbirkorlar uchun yengil tushunadigan, tushunarli va tez amalga oshadigan soliq tartiblari ularni rasmiy faoliyatga jalb qiladi. Masalan, yagona soliq toʻlovi, patent tizimi, qatʻiy belgilangan soliqlar kichik biznes uchun qulay hisoblanadi. Bu tadbirkorlarning vaqtini tejaydi, ortiqcha hujjatbozlikni kamaytiradi. Tizim oddiy boʻlsa, soliq toʻlovchilar soni ortib, umumiy tushum miqdori ham oʻsadi. Bunda kichik va oʻrta biznes hamda davlat soliq organlari oʻrtasida oʻzaro ishonch mustahkamlanadi. Qiyin, tushunarsiz va ogʻir soliq tizimlari esa koʻpincha tadbirkorlar "xufyona iqtisodiyot"ga oʻtadi. Shu boisdan soliq tizimi tartibli, shaffof va foydalanishga

qulay bo'lishi juda muhim. Bu nafaqat to'lovchilar sonini ko'paytirish, balki soliq intizomini ham yaxshilaydi.

Soliq ma'muriyatining raqamlashtirilishi kichik va o'rta biznesni samarali soliqqa tortishda katta rol o'ynaydi. Elektron hisobotlar, onlayn kassa apparatlari, elektron hisob-fakturalar va avtomatlashtirilgan ma'lumot almashinuvi orqali ko'plab noqonuniy faoliyatlarni aniqlash mumkin. Bu orqali daromadlarni yashirish holatlari kamayadi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun hisobot topshirish va nazorat jarayonlari yengillashadi. Masalan, avtomatlashgan hisobot tizimlari tadbirkorning vaqtini tejaydi, adashish ehtimolini kamaytiradi. Bu jarayonda ma'lumotlar ochiq va tekshirib boriladigan bo'lishi ham shaffoflikni ta'minlaydi. Raqamlashtirish orqali davlat va tadbirkorlar o'rtasida tezkor aloqa yo'lga qo'yiladi. Samarali raqamli tizimlar orqali soliq to'lovchilarning faoliyatini tahlil qilish osonlashadi. Natijada, soliq organlari real tahlil asosida qarorlar qabul qiladi.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiyotning ma'lum qismi haligacha "informal" ya'ni rasman ro'yxatga olinmagan holda faoliyat yuritadi. Bu holat davlat budjeti uchun yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. Agar soliq tizimi oddiy va tadbirkorlar uchun ma'qul bo'lsa, ular rasmiy faoliyat yuritishga o'tadilar. Bunda, davlat tomonidan xatarsiz faoliyat yuritish, huquqiy himoya, imtiyozlar va qonuniy imkoniyatlar berilishi ham muhim ahamiyatga ega. Kichik va o'rta biznesni rasmiylashtirish orqali davlat nafaqat soliq tushumlarini oshiradi, balki mehnat munosabatlarini tartibga soladi. Budgetga tushumlar oshishi, pensiya va ijtimoiy ta'minot tizimlarining barqarorligiga ham xizmat qiladi. Shu bois, samarali soliq tizimi "xufyona iqtisodiyot"ni qisqartirishning muhim vositasidir. Davlatning soliqqa tortish siyosati rag'batlantiruvchi bo'lishiga qaramay, jazolovchi ham bo'lishi zarur.

Kichik va o'rta biznes ko'p sonli faol sub'ektlardan iborat bo'lgani uchun ularni soliqqa tortish budgetga barqaror daromad manbasini ta'minlaydi. Yirik korxonalar bankrot bo'lsa, soliq tushumlarida keskin pasayish kuzatilishi mumkin. Ammo kichik va o'rta biznes keng qamrovli hamda sohaga ko'ra diversifikatsiya qilingan bo'lgani uchun umumiy xavf past bo'ladi. Ularning faolligi orqali davlat soliq tushumlarini prognoz qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, davlat budjeti rejalarini to'g'ri tuzishga imkon yaratadi. Shuningdek, kichik va o'rta biznesni soliqqa jalb qilish hududiy darajada ham iqtisodiy faollikni ta'minlaydi. Har bir mahallada faoliyat yurituvchi kichik bizneslar mahalliy budjetni boyitishga hissa qo'shadi. Bu esa infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Barqaror tushum manbalari davlat moliyaviy barqarorligining asosidir.

Soliq tizimi biznes muhitiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Agar soliq siyosati barqaror, aniq va shaffof bo'lsa, kichik va o'rta biznes hamda investorlar o'z faoliyatlarini ishonch bilan rejalashtiradi. Soliq imtiyozlari va yengilliklari yangi investitsiyalarni jalb qiladi. Xususan, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar uchun bir necha yil davomida soliqdan ozod etish yoki past stavka qo'llash samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq yukining progressiv emas, regressiv bo'lishi kichik biznesga zarar yetkazishi mumkin. Investorlar o'z mablag'larini qo'yishda soliq xavfini ham hisobga oladi. Soliq tizimidagi barqarorlik – uzoq muddatli investitsiya uchun asosiy omillardan biri. Shunday ekan, kichik va o'rta biznes uchun samarali soliq tizimi investitsiya muhitining ajralmas qismidir. Bu esa yangi texnologiyalarni jalb qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga turtki bo'ladi.

Kichik va o'rta biznes – ish o'rinlarining asosiy manbai hisoblanadi. Samarali soliq siyosati kichik va o'rta biznesni ko'proq ishchi qabul qilishga rag'batlantiradi. Masalan, ishchilarni rasmiy ro'yxatga olishda imtiyozlar, ijtimoiy to'lovlarda yengilliklar mavjud bo'lsa, tadbirkorlar "norasmiy ishchi"ni rasmiylashtirishga moyil bo'ladi. Shu tariqa, mehnat bozoridagi noqonuniy ishlash holatlari qisqaradi. Budjetga tushumlar ko'payib, ijtimoiy ta'minot tizimlari mustahkamlanadi. Ish o'rinlari ortishi esa aholining daromadi o'sishiga olib keladi, bu esa ichki bozorda talabni kuchaytiradi. Davlat, o'z navbatida, aholi bandligini ta'minlash vazifasini samarali amalga oshiradi. Shunday qilib, soliq siyosati ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Ish bilan ta'minlash ko'p jihatdan soliq siyosatining oqilona yuritilishiga bog'liq.

To'g'ri qurilgan soliq siyosati, soliq to'lash madaniyatini shakllantiradi. Bu esa soliq tizimining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi. Agar soliq to'lovchilar tizimni tushunsa va uni adolatli deb hisoblasa, ular ixtiyoriy ravishda soliq to'lashga moyil bo'ladilar. Davlat bu jarayonda faqat tekshiruvchi emas, maslahatchi, ko'makchi sifatida qatnashsa, tadbirkorlarda ishonch paydo bo'ladi. Soliq sohasida doimiy axborot kampaniyalari olib borilishi, soliq to'lashning ahamiyati haqida tushuntirishlar berilishi lozim. Soliq to'lashni faqat majburiyat emas, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat sifatida ko'rish kerak. Bunda ta'lim tizimi ham katta rol o'ynaydi. Soliqqa oid bilimlar maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi zarur. Shunda kelajakda mas'uliyatli soliq to'lovchilar yetishib chiqadi. Soliq madaniyati – barqaror iqtisodiyot asosidir.

Soliq siyosati aholining tadbirkorlik faolligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Agar soliq tizimi og'ir, noaniq va xavfli bo'lsa, ko'pchilik biznes boshlashdan qo'rqadi. Ammo tizim oddiy, shaffof va prognozlash mumkin bo'lsa, ko'plab

fuqarolar o'z biznesini boshlashga harakat qiladi. Shu bilan iqtisodiyotda yangi sub'ektlar, yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'ladi. Bu ichki raqobatni kuchaytiradi, sifatni oshiradi. Aholining tadbirkorlik faolligi yuqori bo'lsa, davlat iqtisodiy o'sishni ichki manbalar orqali ta'minlaydi. Kichik va o'rta biznes soni ortishi bilan yangi ish o'rinlari, soliq tushumlari va ijtimoiy faollik ham o'sadi. Soliq siyosati orqali davlat biznesni "qo'rquv manbai" emas, "rivoj vositasi" sifatida ko'rsatishi lozim. Bu iqtisodiy muvozanat va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim.

Samarali soliq siyosati orqali davlat kichik va o'rta biznesni muayyan yo'nalishlarda rivojlantirishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi, IT, hunarmandchilik yoki qayta ishlash sohalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari berilsa, bu sohalarda rivoj tezlashadi. Davlat o'zining strategik maqsadlariga qarab, soliq siyosatini shakllantiradi. Agar ekologik toza ishlab chiqarish yoki eksportga yo'naltirilgan faoliyatga yengilliklar berilsa, tadbirkorlar bu yo'nalishlarga qiziqishni oshiradi. Bunday rag'batlantiruvchi choralar orqali iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratiladi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari faqat maqsadli va samarali faoliyat uchun berilishi lozim. Aks holda, tizim suiste'mol qilinishi mumkin. To'g'ri tashkil etilgan sohaga oid soliq siyosati kichik va o'rta biznes rivojiga katta turtki beradi.

Rasmiy hisobatlarga ko'ra, **2024-yil yakuniga kelib O'zbekistondagi norasmiy iqtisodiyot hajmi (ya'ni ro'yxatdan o'tmagan va yashirin faoliyatlarning yig'indisi)** 505,65 trln so'mga yetgan bo'lib, bu yalpi ichki mahsulotning (YAIM) taxminan **34,8 foizini** tashkil etgan. Shuningdan **norasmiy iqtisodiyot ulushi 26,4%**, **yashirin iqtisodiyot ulushi esa 8,4%** bo'lgan. Tarmoqlar kesimida esa, **qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik sohalari norasmiy iqtisodiy faoliyatning taxminan 63,6 foizini**, xizmat ko'rsatish va qurilish sohalari mos ravishda **40,1% va 41,3%**, sanoat esa **8,9%** atrofini tashkil etgan³¹.

2025-yilning birinchi yarmida ham norasmiy iqtisodiyotning ulushi yuqori bo'lib qolmoqda – YAIMning taxminan **32,9%** miqdorida. Buning **201,3 trln so'mi norasmiy faoliyatlar va aholi xo'jaliklariga, 64,2 trln so'mi esa yashirin operatsiyalarga** to'g'ri keladi³². Shu bilan birga, O'zbekistonda soliq tushumlari o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda: **2024-yilda davlat budjetiga soliq tushumlari 199,6 trln so'mni tashkil etdi**³³, bu o'tgan yilga nisbatan 20,3 foizdan ziyod o'sishni anglatadi. Foyda solig'i, mulk solig'i, aksiz solig'i, QQS va boshqa

³¹ <https://centralasianlight.org/news/volume-of-non-observed-economy-in-uzbekistan-in-2024-amounted-to-almost-40-blm>

³² <https://centralasianlight.org/news/uzbekistans-shadow-economy-reaches-nearly-one-third-of-gdp-in-first-half-of-2025>

³³ <https://www.xs.uz/uzkr/post/2024-jilda-davlat-byudzhetiga-qancha-soliq-tushumlari-tushgan>

toifalar bo'yicha o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, iqtisodiyotning katta qismi norasmiylik qolganligi sababli bu o'sish to'liq potensialni aks ettirmaydi.

Bu raqamlar ikki o'zaro bog'liq muammoni ochib beradi: birinchidan, **norasmiy va yashirin iqtisodiyot ulushining kattaligi soliq bazasini zaiflashtirmoqda;**

ikkinchidan, **soliq ma'murchiligi va rioya etish mexanizmlaridagi samarasizlik mavjud tizimlarning ta'sirchanligini kamaytiradi.**

Aynan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu samarasizliklar qo'shimcha soliq xarajatlariga, noaniqlikka, hisobotni kamaytirishga yoki umuman rasmiy ro'yxatdan o'tmaslikka olib kelmoqda.

Hukumat tomonidan qabul qilingan prognozlarga ko'ra, agar **yashirin iqtisodiyot hajmi 2030-yilgacha ikki barobarga qisqartirilsa**, bu yiliga kamida 20 trln so'm qo'shimcha budjet daromadi keltirilishi mumkin³⁴. Shu bilan birga, **soliq xizmatlarini raqamlashtirishni chuqurlashtirish – elektron invoyslar, avtomatlashtirilgan QQS hisoboti va elektron chek tizimlarini joriy etish hamda risk asosidagi audit modellarini takomillashtirish** natijasida yaqin 3–5 yil ichida **deklaratsiya qilingan va haqiqiy iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi tafovutni 5–10 foiz punktga qisqartirish** mumkin (bu esa institutsional islohotlar va soliq organlarining salohiyatini oshirishga bog'liq). Shu sharoitda, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – **O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortish samaradorligining pastligiga olib kelayotgan omillarni chuqur tahlil qilish, institutsional, ma'muriy, texnologik va xulqiy to'siqlarni aniqlash, hamda soliq rioyasini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va davlat byudjetini barqaror oshirish** imkonini beruvchi siyosiy vositalarni ilmiy asosda ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlar sezilarli darajada ko'paydi va ular asosan rasmiylashuvni chegaralovchi omillar hamda soliq ma'murchiligidagi innovatsiyalar rolini o'rganishga qaratilgan. Xalqaro miqyosda raqamlashtirish, risk asosidagi audit va QQS bo'yicha rioya etish haqidagi ko'plab qiyosiy tadqiqotlar muhim natijalar bergan. Masalan, Nose, Pierri va Honda (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalar darajasidagi raqamlashtirish darajasi bir standart og'ishga oshgani va hukumat texnologiyalaridagi (GovTech) rivojlanish bilan uyg'unlashgan holda, soliq tushumlarining YAIMga nisbatida 3 foiz punktgacha o'sish bilan bog'liqligi aniqlangan.

³⁴ <https://www.spot.uz/ru/2024/12/19/shadow-economy>

Shuningdek, Nose va Mengistu (2023) tomonidan “*Exploring the Adoption of Selected Digital Technologies in Tax Administration*” nomli ishda bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda elektron fiskal uskunalari (EFDs) va majburiy elektron invoys tizimini joriy etish natijasida QQS bo‘yicha sof tushumlar YAIMning taxminan 1 foizi miqdorida oshgani, daromad solig‘idagi o‘shish esa nisbatan kichik bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgani qayd etilgan. Shuningdek, “*Digitalization against tax evasion: evidence on the role of company size*” (2025) tadqiqoti Vengriyada onlayn kassalarni majburiy joriy etish kichik firmalarning rasmiy aylanmasi oshishiga olib kelganini, ya’ni soliqdan qochish holatlari qisqarganini ko‘rsatgan.

O‘zbekistonda esa mahalliy tadqiqotlar soliq tizimi, kichik va o‘rta biznes soliq intizomi va me‘yoriy to‘siqlarni tahlil qiladi. Masalan, Urinov (2025) soliq siyosati islohotlariga qaramasdan, rejimlar o‘rtasida keskin o‘tishlar, yuqori rioya etish xarajatlari va tadbirkorlarning soliq imtiyozlari haqida yetarli xabardor emasligi kabi tuzilmaviy samarasizliklar saqlanayotganini ta’kidlaydi. Abdibositova (2024) esa 2017–2023-yillardagi islohotlar – yagona soliq rejimlarini joriy etish va kichik korxonalar uchun soliq stavkalarini 4–5% atrofida pasaytirish – rasmiy ro‘yxatdan o‘tish va faoliyat kengayishini rag‘batlantirganini, ammo kichik va o‘rta bizneslar hali ham ma‘muriy murakkablik va noaniqlikni asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Tursunova (2020)ning ishida soddalashtirilgan soliq rejimlari kichik biznes uchun ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa-da, kichik biznes segmentida amalga oshiriladigan maxsus rejimlar ijro va nazorat jihatidan yetarlicha samarali emasligi qayd etilgan. Rasulev, Voronin va Koraboev (2025) kichik biznes uchun aylanmadan olinadigan soliq va belgilangan stavka bo‘yicha soliqlarni taqqoslab, bunday rejimlar QQS yoki daromad solig‘iga nisbatan ko‘proq ommalashgani va rioya etish darajasi yuqori bo‘lganini, asosan hisobot yuritish yuki kamaygani bilan izohlaydi.

Shuningdek, “*Issues of Improving the Mechanisms of Taxation of Service Enterprises in Uzbekistan*” maqolasida xizmat ko‘rsatish sohasida 2022–2023-yillarda kishi boshiga bozor xizmatlari hajmi $\approx 120\%$ ga oshgani, biroq soliq imtiyozlari va maxsus rejimlar turli sohalarda izchil qo‘llanilmayotgani ta’kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada iqtisodiy, qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko‘p omilli ekonometrik tahlil uslublari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar

Ushbu bo‘limda “Metodologiya” qismda bayon etilgan ma’lumotlar va tahlil natijalari asosida olingan empirik xulosalar keltiriladi. Natijalar to‘rt asosiy yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan:

(a) yashirin (norasmiy va soya) iqtisodiyot hajmi;

(b) kichik va o‘rta biznes subyektlarining soliq intizomi va raqamlashtirish darajasi;

(c) so‘nggi yillarda amalga oshirilgan siyosat chora-tadbirlarining samarasi;

(d) taklif etilayotgan siyosiy vositalarning daromadlar, rioya darajasi va rasmiylashuvga ta’sirini baholash bo‘yicha ssenariy simulyatsiyalari.

(a) Yashirin iqtisodiyot hajmi

2025-yilning birinchi yarmida O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi taxminan 265,5 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu YAIMning 32,9 foiziga teng. Shu jumladan, norasmiy iqtisodiyot hissasi 201,3 trln so‘m ($\approx 24,9\%$), soya iqtisodiyoti hissasi esa 64,2 trln so‘m ($\approx 7,9\%$) bo‘lgan. 2024-yil yakuniga ko‘ra, yashirin iqtisodiyot hajmi taxminan 505,65 trln so‘m (YAIMning 34,8%) ni tashkil etgan. Shuning 383,64 trln so‘mi ($\approx 26,4\%$) norasmiy iqtisodiyot, 122 trln so‘mi ($\approx 8,4\%$)³⁵ esa soya iqtisodiyoti hissasiga to‘g‘ri keladi.

Sohaviy tahlilga ko‘ra, 2024-yilda qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik sohalari yashirin iqtisodiyot hajmining ****63,6%****ini tashkil etgan. Qurilish sohasi hissasi 41,3%, xizmat ko‘rsatish sohasi 40,1%, sanoat sohasi esa 8,9%³⁶ atrofida bo‘lgan.

(b) KO‘Bning soliq intizomi va rejimlardan foydalanish

2023-yildan ikki yil oldin joriy etilgan 1% ijtimoiy soliq stavkasi savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarini sonini 1,5 barobarga oshirgan va ushbu sohalarda 220 mingta yangi ish o‘rni yaratilgan. Shu bilan birga, ish haqi to‘lovlarini rasmiylashtirish darajasi oshgan va natijada 2,1 trln so‘mlik qo‘shimcha soliq tushumi qayd etilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasida 2023-yilda jami 27,5 trln so‘m soliq yig‘ilgan bo‘lib, faqatgina yirik 20 ta soliq to‘lovchi 4,8 trln so‘m ($\approx 17,7\%$) hissa bilan xizmat sohasining umumiy soliq tushumining katta qismini ta’minlagan³⁷.

Xufiyona iqtisodiyotga qarshi siyosat natijalari.

³⁵ <https://kun.uz/en/49960075>

³⁶ <https://kun.uz/en/49960075>

³⁷ Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2024-yil davomida davlat byudjetiga 15,9 trln so‘m qo‘shimcha tushum xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralar orqali ta‘minlangan. Shu bilan birga, 15 mingta norasmiy ish o‘rni rasmiylashtirilgan, hamda 9 mingta ilgari xufyona iqtisodiyotida faoliyat yuritgan tadbirkor rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan.

Xufyona iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2025-yilning birinchi yarmida 8,4%dan 8,0%gacha pasaygan, norasmiy iqtisodiyot ulushi esa deyarli o‘zgarmagan³⁸ holda yuqori darajada qolgan.

(d) Siyosiy vositalar bo‘yicha ssenariy prognozlari

Raqamlashtirish (e-invoicing, majburiy onlayn hisobot), riskka asoslangan audit va soliq rejimlarini soddalashtirishni qamrab olgan ssenariy modellar quyidagicha natija berishi kutilmoqda:

1-jadval.

Ssenariylar bo‘yicha soliq siyosati paketlarining soliq tushumlari hamda kichik va o‘rta biznesni rasmiylashuviga ta‘siri – ssenariy simulyatsiyalari (2025–2030)³⁹

Ssenariy	Qo‘llaniladigan siyosat vositalari	Soliq tushumlarining o‘sishi (%) YAIMga nisbatan)	Kichik va o‘rta biznes rasmiy ro‘yxatdan o‘tishining o‘sishi	Yashirin iqtisodiyotning kamayishi (%)
Bazaviy ssenariy (hozirgi tendensiyalar)	Amaldagi siyosat sur‘ati, cheklangan raqamlashtirish	+0,2–0,3% (2025–2026)	+5–7% (2026–yilgacha)	32,9% → ≈30–31% YAIM
O‘rta islohot paketi	Xizmat va savdo sohalarida to‘liq e-invoice; yuqori xavf sohalarida riskka asoslangan audit; soddalashtirilgan soliq poroglarini 20%ga oshirish	+0,8–1,2% (3 yilda)	+15–20% (2025–2028)	≈25–27% YAIM (2028–yilgacha)
Faol (agressiv) paket	Yuqoridagi choralar + soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va yashirin maoshlarga qarshi qat‘iy choralar	+1,5–2,0% (3–5 yilda)	+25–30% KO‘B rasmiylashuvi	<20% YAIM (2030–yilgacha)

³⁸ <https://kun.uz/en/49960075>

³⁹ Stat.uz va Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval uch turdagi siyosiy paketni solishtiradi – bazaviy (hozirgi sur’at), o’rta islohot va faol (agressiv) paket. Har bir paket raqamlashtirish darajasi, audit strategiyasi va insentivlar jihatidan turlicha darajada ko‘proq yoki kamroq intervensiya kiritadi.

Bazaviy ssenariy ijro qilinsa, iqtisodiy natija cheklangan (YAIMga nisbatan +0.2-0.3%), ammo xizmat va savdo sektorida oz miqdorda rasmiylashuv kuzatiladi (+5-7%). O’rta paket va, ayniqsa, agressiv paket – raqamlashtirish va riskga asoslangan auditni birlashtirib – soliq tushumlari va rasmiylashuv bo‘yicha ancha katta ta’sir ko‘rsatadi: agressiv paket 3-5 yilda YAIMga nisbatan +1.5-2.0%gacha tushum qo‘shishi, kichik va o’rta biznes rasmiylashuvini 25-30%gacha oshirishi mumkin.

Bu prognozlar qonunchilik islohotlari, institutsional salohiyat, raqamli infratuzilma va jamoat ishonchining ta’minlanishi sharti bilan amalga oshadi. Aks holda, kutilgan samara faqat yarim darajada bo‘lishi mumkin.

2-jadval

2025-yil I yarmida yashirin iqtisodiyot hamda kichik va o’rta biznes salohiyati ko‘rsatkichlari – statistik hulosalar⁴⁰.

Ko‘rsatkich	Qiymat / O‘zgarish	Izoh
Yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi (2025-yil I yarm)	32,9%	2024-yildagi 34,8%dan pasayish; asosan xufyona iqtisodiyoti hisobiga
Norasmiy sektor ulushi (2025-yil I yarm)	≈24,9%	Asosan qishloq xo‘jaligida yuqori darajada
Xufyona iqtisodiyot ulushi (2025-yil I yarm)	≈7,9-8,0%	Xufyona faoliyati hissasining asta-sekin pasayishi
Savdo/xizmat sohasida 1% ijtimoiy soliq ta’siri	+50% korxonalar, +220 ming ish o‘rni	Ish haqi rasmiylashuviga ijobiy ta’sir
2024-yilda xufyona iqtisodiyotiga qarshi choralar natijasida byudjetga qaytarilgan mablag‘	15,9 trln so‘m	Resurslarning to‘g‘ri boshqarilganda katta imkoniyat mavjudligini ko‘rsatadi

Ushbu jadvalda 2025-yilning birinchi yarmiga oid yashirin iqtisodiyot, norasmiy sektor va soya iqtisodiyoti hissasi, shuningdek 1% ijtimoiy soliq ta’siri va 2024-yilda xufyona iqtisodiyotiga qarshi choralar natijasida budjetga qaytarilgan mablag‘lar kabi ko‘rsatkichlar taqdim etilgan.

⁴⁰ Stat.uz va Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yashirin iqtisodiyotning YAIMga nisbati (32,9%) – o‘zgarish 2024-yildagi 34,8%dan pastroq, bu asosan soya iqtisodiyoti hissasi pasayishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Norasmiy sektor hissasi ($\approx 24,9\%$) – qishloq xo‘jaligida yuksaklik, ro‘yxatdan o‘tish darajasining pastligi bilan bog‘liq.

Xufyona iqtisodiyoti hissasi ($\approx 7,9-8,0\%$) – xufyona faoliyatining yashirinligini aks ettiradi va uning umumiy iqtisodiy faoliyatdagi salmog‘ini ko‘rsatadi.

1% ijtimoiy soliq ta‘siri – savdo/xizmat sohalarda korxonalar sonini +50%, ish o‘rinlari +220 000 bo‘lgani, ya‘ni rasmiylashuvni rag‘batlantirishda katta ta‘sir ko‘rsatadi degan fikr.

2024-yilda budjetga qaytarilgan mablag‘lar (15,9 trln so‘m) – xufyona iqtisodiyotga qarshi choralar natijasida davlat foydasi kattaligini illyustratsiya qiladi.

Tuzilmaviy barqarorlik: Yashirin iqtisodiyot hajmi qisqarish tendensiyasiga qaramay, hali ham katta bo‘lib qolmoqda. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida rasmiylashtirish sur‘atining pastligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi bilan izohlanadi.

Xufyona iqtisodiyotining qisqarishi: 2024–2025-yillarda soya iqtisodiyoti ulushining asta-sekin pasayishi soliq organlari tomonidan “konvert maoshlar”ga qarshi kurash, raqamlashtirish va rag‘batlantirish choralarining samarasini ko‘rsatadi. Biroq ta‘sir hali cheklangan, bu esa kechikkan institutsional natijalarni anglatadi.

Rasmiylashtirishdan yuqori samara: 2024-yilda 15,9 trln so‘mlik qo‘shimcha budjet tushumlari yashirin faoliyatni rasmiylashtirish bo‘yicha choralar yuqori potensialga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish va soddalashtirish – asosiy drayverlar: Model natijalari shundan dalolat beradiki, soliq rejimlarini soddalashtirish, raqamli hisobotni kengaytirish va riskka asoslangan auditni tatbiq etish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini 3–5 yil ichida sezilarli darajada qisqartirish mumkin.

Xulosa va takliflar

Mavjud muvozanat va cheklovlar: qishloq yoki kichik hududlardagi mikrokorxonalar uchun rioya qilish xarajatlari yuqori bo‘lishi islohotlarning sur‘atini sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, mavsumiylik va statistik xatoliklar qisqa muddatli natijalarni buzishi ehtimoldan holi emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi umumiy qonuniyatlarni ko‘rsatadi:

1. Raqamlashtirish va soliq ma'murchiligidagi islohotlar, ayniqsa QQS bo'yicha, ma'lumotlar almashinuvi yaxshilanganda va audit salohiyati oshirilganda, rioya etish darajasini oshiradi.

2. Maxsus soliq rejimlari (aylanmadan olinadigan soliq, qat'iy belgilangan stavka) kichik biznes uchun samarali bo'lsa-da, noto'g'ri chegara va nazorat mexanizmlari qo'llanilganda byudjet tushumlari yo'qotilishi xavfini keltirib chiqaradi.

3. Ma'muriy va institutsional to'siqlar (tizimning murakkabligi, noaniqligi, shaffoflikning yetishmasligi, zaif risk modellari) soliq samarasizligi va norasmiylikning asosiy sabablaridir.

4. Soliq savodxonligi va axborotga oid cheklovlar – tadbirkorlarning huquqiy rejimlar, imtiyozlar va majburiyatlar to'g'risidagi yetarli xabardor emasligi.

Mavjud ilmiy va amaliyot ma'lumotlariga asoslanib, quyidagi natijalar kutilmoqda:

- Agar O'zbekistonda majburiy elektron invoys va EFD tizimlari barcha sektorlarda joriy etilsa, QQS tushumlari YAIMning 0,5-1,2 foizi miqdorida oshishi mumkin.

- Risk asosidagi audit tizimini yuqori norasmiylikka ega sektorlarda (masalan, xizmat ko'rsatish, chakana savdo) joriy etish hisobotni kamaytirish holatlarini 10-15% ga qisqartirishi mumkin.

- GovTech va raqamli davlat infratuzilmasini kuchaytirish (soliqchi shaxsiy kabineti, bank va reestr ma'lumotlari integratsiyasi) kichik va o'rta biznes uchun soliqqa rioya etish xarajatlarini 20-30% ga qisqartirishi va ixtiyoriy rioya darajasini oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdibositova, M. (2024) "O'zbekistonda kichik va o'rta biznes soha vakillarini soliqqa tortish tizimi", *Management and Future Technologies*.

https://journalapi.umft.uz/files/article/1728732915904-MFT_journal_1%283%29_article_18.pdf

2. Ramona R. va boshqalar (2022). "Digital Transformation of Small and Medium Enterprises: Aspects of Public Support" *Journal of Risk and Financial Management*, 15(2), 45.

3. Exploring the Adoption of Selected Digital Technologies in Tax Administration: A Cross-Country Perspective (2023) M. Nose & A. Mengistu, IMF Staff Discussion & Working Papers series.

4. Issues of Improving the Mechanisms of Taxation of Service Enterprises in Uzbekistan (2024) J. Pardayev, *Proceedings of International Educators Conference*, 3(5), 137-142.

5. Nose, M., Pierri, N. & Honda, J. (2025) ‘Leveraging Digital Technologies in Boosting Tax Collection’, *IMF Working Papers*, 2025/089.

6. Rasulev, A., Voronin, S. i Koraboev, B. (2025) “Puti sovershenstvovaniya nalogooblojeniya mikrobiznesa v Respublike Uzbekistan”, *Obuyestvo i ekonomika (RJRAAP)*, №.2, s. 77-93.

7. Tursunova, N.K. (2020) ‘Problems and Prospects of Taxation of Small Business in Uzbekistan’, *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(4), 17-19.

8. Urinov, I. V. (2025) ‘The impact of tax policy on the development of small and medium enterprises in Uzbekistan’, *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(2).